

“VATAN HIMOYACHISI MENING NIGOHIM OSIDA”

Yo'ldasheva Mashhura
Jo'rabek qizi Alfraganus
Universiteti iqtisodiyot
Tarmoqlari va sohalari
Fakulteti 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Bugun biz, milliy armiyamiz harbiy vatanparvarlik, harbiy qurilish va harbiy sanoat sohasida dunyodagi eng yaxshi tajribalarni qo'llagan holda, chegaralarimiz xavfsizligini ta'minlashning ishonchli kafolatiga aylandi deb g'urur bilan ayta olamiz. O'zbekiston Qurolli Kuchlarining tayanchi va suyanchi bo'lgan zamonaviy harbiy xizmatchilar timsolida biz avvalambor chuqur bilim va intellektual salohiyatga, o'z muqaddas harbiy burchini bajarish yo'lida qat'iy iroda va mustahkam tayyorgarlikka ega bo'lgan, ona yurtimizga sadoqatli, mard va fidoyi insonlarni ko'ramiz hamda ular bilan haqli ravishda faxrlanamiz.... Fursatdan foydalanib, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 31 yilligi va Vatan himoyachilari kuni bayrami bilan tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, xonardonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayzu baraka tilayman.

Абстрактный: Сегодня мы можем с гордостью сказать, что наша национальная армия стала надежной гарантией безопасности наших границ, используя лучший мировой опыт в области военного патриотизма, военного строительства и военной промышленности. В образе современных военнослужащих, являющихся опорой и опорой Вооружённых Сил Узбекистана, мы видим, прежде всего, глубокие знания и интеллектуальный потенциал, сильную волю и крепкую подготовку к выполнению своего священного воинского долга, верных, смелых и самоотверженных перед нашей страной людей. Родина и мы по праву гордимся ими.

Пользуясь случаем, хотел бы поздравить вас с 31-й годовщиной образования Вооруженных Сил Республики Узбекистан и Днем защитников Отечества.

Abstract: Today, we can proudly say that our national army has become a reliable guarantee of the security of our borders, using the best practices in the world in the field of military patriotism, military construction and military industry. In the image of modern military personnel, who are the backbone and support of the Armed Forces of Uzbekistan, we see first of all deep knowledge and intellectual potential, strong will and strong training to fulfill their sacred military duty, loyal, brave and selfless people to our motherland, and we are rightly proud of them.

I would like to take this opportunity to congratulate you on the 31st anniversary of the establishment of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan and the Day of Defenders of the Fatherland.

Ma'lumki, 1993-yil 29-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasining Qonuniga binoan “14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni” deb e'lon qilindi. Vatan himoyachilari kunini

ko‘tarinki va ta’sirchan ruhda, haqiqiy xalq bayrami sifatida, yangicha shaklda tashkil etish maqsadida Muhtaram Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan 2021-yil 21-noyabr “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 30 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi F-4 farmoyishi qabul qilindi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Armiya va xalq – bir tanu bir jon!” degan olajanob g‘oya va amaliy harakat barcha bo‘g‘indagi hokimiyat va boshqaruv idoralari, mahalla, yoshlari, xotin-qizlar, nuroniylar tashkilotlari, ta’lim-tarbiya muassasalari faoliyatini, keng jamoatchilik hayotini qamrab olmoqda. Bu esa Vatan himoyasi chindan ham barchamizning nafaqat vazifamiz, balki sharaflı burchimizga aylanib borayotganidan yaqqol dalolat beradi” deb aytgan gaplarida ham Qurolli Kuchlarimizning xalq bilan har qachongidan ham yaqinligini anglashimiz mumkin.

Yurtimizda Vatan himoyasi kabi sharaflı ulug‘vor ishga o‘zini bag‘ishlagan harbiyalarimiz, nafaqadagi faxriyalarimiz katta hurmat va e’zoz bilan qadrlanib, har yili “14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni” katta bayram va shodiyona bilan o‘tadi. Bu kabi e’tibor va e’tirof mas’uliyatli kasb egalarining Vatan oldidagi xizmatlarini yuqori baholanishini namoyon etib, ularning kelgusidagi faoliyatiga ham kuch-quvvat, shijoat va albatta sadoqat bag‘ishlaydi.

Albatta, Vatanni himoya qilish barcha uchun muqaddas burch hisoblanadi. Bu burchni ado etishda yurtimizning himoyachilari bo‘lgan milliy armiyamiz va barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan halqimizning tinch va osoyishta hayotini ta’minalashda olib borayotgan xizmatini munosib baholash hamda ularga zarur shart-sharoit yaratish masalalari ham davlatimiz siyosatining muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoning turli joylarida keskin tus olayotgan vaziyatda, xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavf-xatarlari barchamizni ogoh bo‘lishga chaqiradi va Qurolli kuchlarimizdan esa yuqori darajadagi jangovar qobiliyatni mustahkamlashni talab etadi. So‘nggi yillarda davlatimizda harbiy-siyosiy masalalarda ham tubdan islohotlar amalga oshirilib, milliy armiyamiz har qanday tahdidlarga munosib zarba beradigan jangovor qudrati yildan yilga oshib bormoqda.


Bundan tashqari, har bir harbiy xizmatchining bilimi, malakasi hamda ruhiy tayyorgarligi oshirilib borilmoqda.

Biz bilamizki azal-azaldan harbiylik kasbi mashaqqatli, shu bilan birga sharaflı kasb sifatida sanalib kelingan. Mashaqqati shundaki, vatanimizning tinchligi va osoyishtaligi uchun barcha mas’uliyat harbiyalarimiz zimmasiga tushadi. Ular kechani-kecha, kunduzni-kunduz demay, qahraton sovuqqa ham, jazirama issiqqa ham bardosh berib vatanimiz tinchligini, uning sarhadlarini qo‘riqlab kelishmoqdalar.

Mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, armiya va xalq birligini ta’minalash borasida joylardagi davlat hokimiyyati organlarining rolini oshirish bo‘yicha ishlar butunlay yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi.

Vatan ostonadan, inson yashab nafas olib turgan go‘shadan, insonning kindik qoni to‘kilgan xonadon tuprog‘idan boshlanadi. Shu bois, inson ilk bor nafas olib, ulg‘ayib voyaga yetgan ona zaminga mehr-muhabbat va sadoqatda bo‘lishi, uning har bir hovuch muqaddas

tuprog‘ini ko‘ziga to‘tiyodek surtishi, unga nisbatan bir umr farzandlik hissi bilan yashashi uning uchun ham farz, ham qarzdir. Vatanimiz tuprog‘idagi har bir qarich yer muqaddas hisoblanadi. Shuning uchun ajdodlarimiz yurt tuprog‘ini ko‘zlariga to‘tiyo etganlar, qayerga borsa ham vatan yodi bilan nafas olganlar. Yurtimiz insonlari vatanimizdan tashqarida baxtsaodatga erisha olmaydilar. Har bir insonning o‘z Vatani uning uchun dunyodagi eng go‘zal va muqaddas makondir. Vatanga mehr-muhabati bo‘lmagan insonni ota-onasiga mehri bor desalar bunga ishonib bo‘lmaydi. Ona vatanimizga sadoqatli bo‘lish, ajdodlar merosiga qiziqish, milliy ma’naviyatdan baxramandlik, o‘ziga ishonch, kelajak oldida ma’sullik tuyg‘ularini tarbiyalaydi. Ta’lim muassasalarida “Vatan himoyachilari kuni” tadbirlarini o‘tkazishning mazmun-mohiyati shundan iboratki, o‘quvchilardan Respublikamiz Qurolli kuchlarining salohiyati va obro‘sni, mamlakatimiz mustaqilligi hamda xududiy yaxlitligi, xalqimizning tinch hayotini va mustaqillikni mustahkamlash yo‘lidagi bunyodkorlik mehnatini himoya qilish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyatini keng yoritib berish, ularni o‘z vataniga sodiq va fidoiy insonlar etib tarbiyalash barcha ta’lim muassasalarining pedagogik jamoasining eng muhim vazifalaridan biriga aylangan. Bugungi kunda o‘quvchi yoshlarda vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimioy hamkorlik kabi milliy g‘oyalarning asosiy yo‘nalishlarini shakllantirish, bu ta’lim muassasalaridagi ma’naviy-ma'rifiy ishlarni yanada takomillashtirish an'anaga aylanib bormoqda. Yoshlarni harbiy xizmatga kuzatish marosimlarini tantanali o‘tkazish ham vatanparvarlik tizimiga kiradi. Vatanimiz, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ishonchli himoya qilish, bugungi kunda har bir yigit qizning orzusi va burchiga aylanib bormoqda.



Safarda qad kerib turgin ey askar

Bilgin mardni ko’rsa chekinar hatar

Yurakni bilakni etib safar bar

Guldek diyoringni asra ey askar

Duosi so’zлari yurakda tursin

Nur ingan yuzlari yodingda tursin

Mehirli ko’zлari yodingda bo’lsin

Ona-I zoringni asra ey askar

Albatta har bitta kasibni o‘z mashqati va masulyati bo’ladi lekin bizning posponlarimiz yurtimiz arslonlarining kasbining masulyati juda og’ir va faxirlidir. Ertani-erta kechni- kech demasdan chegarada sergak turgan askarlarimzi bular bizning faxir va iftixorimizdirlar shuningdek ularning har bitta Vatan uchun qilgan ishlari oltinu tillolarga teng . Biz hecha

ikkilanmasdan hecham uyalmasdan o'zbek o'g'lonlarini misol qilib o'rnak qilib ko'rsatib ular ortigan ergashishi uchun oz bo'lsada hizmat qilsak biz uchun katta g'urur bag'ishlaydi.....
Albatta kasbidan qat'iy nazar har bir o'g'loni yani bizning o'zbek arslonlari o'z kindik qoni to'kilgan jonajon va Jannat makon yurtini ko'z qarochiqidek asrash uchun doimo shay va bardam...

14-Yanvar Vatan himoyachilar kuni munosabati bilan butun O'zbekiston o'g'lonlarini tabriklayman



Yurtning asl jasur og'loni,
Sizlar borki obod shaxarlar.
Chegaramiz metin qalqoni,
Joni fido mag'rur askarlar.
Vatan uchun joningiz fido,
Uxlamaysiz hatto saxarlar.
Sizni doyim qo'llasin xudo,
Omon bo'ling doyim askarlar.

Yurtning asl jasur og'loni, Sizlar borki obod shaxarlar. Chegaramiz metin qalqoni, Joni fido mag'rur askarlar. Vatan uchun joningiz fido, Vatanim qalqoni siz siz askarlar!!!!